

Date: 7th April-2025

XALQ OG‘ZAKI IJODI MEROSIDA MILLIY QADRIYATLAR VA TA’LIM-TARBIYA TAHLILI

Olimjonova Ziynat Bobomurod qizi

International school of finance technology and science instituti
katta o‘qituvchisi

Keldiyorova Sevinch Husniddin qizi

Boshlang’ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodining pedagogik jihatdan ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi orqali yosh avlodga milliy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va til boyligini yetkazishdagi pedagogik afzalliklarni ilmiy asoslar bilan yoritadi.
Kalit so`zlar: Xalq og‘zaki ijodi, pedagogika, ta’lim-tarbiya, axloqiy tarbiya, kognitiv rivojlanish, milliy o‘zlik, madaniy meros

Xalq og‘zaki ijodi – milliy madaniyatimizning eng qadimiy va boy meroslaridan biri bo‘lib, u avloddan-avlodga o‘tkazilgan hikmat, tajriba va axloqiy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Maqollar, dostonlar, rivoyatlar, afsonalar va she’rlar orqali ifodalangan bu ijodiy namunalar nafaqat milliy o‘zlikni mustahkamlash, balki ta’lim va tarbiya sohasida ham muhim o‘rin egallaydi. Ushbu asarlar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutq qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida xalq og‘zaki ijodidan foydalanish orqali o‘quvchilar nafaqat tilni boyitadi, balki uni ijodiy va interaktiv usullar bilan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Shu tarzda, til bilimlari va adabiy tafakkur darajasi oshib, milliy til madaniyatini saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi. Otabobolarimiz, xalq og‘zaki ijodi orqali hayotiy tajriba va dono maslahatlarni kelajak avlodlarga yetkazishgan. Ushbu asarlar yoshlarni mehnatsevarlik, halollik, sabr-toqat, mehr-muhabbat va vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlar bilan tanishtirishda xizmat qiladi. Masalan, “Mehnat qil, halol bo‘l” kabi maqollar bolalarni mehnatsevarlik va halollikka o‘rgatadi, “Do‘sni tanla, dushmanni yut” kabi so‘zlar esa ijtimoiy munosabatlar va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Bugungi kunda ta’lim tizimi zamonaviy metod va texnologiyalar yordamida rivojlanayotgan bo‘lsa-da, xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘zining o‘zgacha tarbiyaviy kuchiga ega ekanligini unutmang. Ushbu ijodiy meros nafaqat tarixiy xotira, balki yoshlarimizga axloqiy me’yorlar va milliy qadriyatlarni yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quv jarayoniga xalq og‘zaki ijodining elementlarini kiritish orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, madaniyat va tarixga hurmatni shakllantirish mumkin. Globalizatsiya va axborot texnologiyalari dunyosida xalq og‘zaki ijodi qadriyatlari avjiga chiqishida yangi imkoniyatlar mavjud. Zamonaviy media vositalari, raqamlı arxivlar va onlayn platformalar yordamida bu boy merosni yangi avlodlarga yetkazish mumkin. Shu bilan birga, maktab va oliy o‘quv yurtlarida xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq darsliklar, seminarlar va madaniy tadbirlar tashkil etish, yoshlarning o‘z milliy merosiga bo‘lgan hurmatini yanada mustahkamlaydi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari murakkab tuzilishi, obrazlar va hikoyaviy

Date: 7th April-2025



tuzilishga ega bo‘lganligi sababli, o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ijodiy materiallarni tahlil qilish, ularning mazmunini anglash va unga tanqidiy yondashish yoshlarning analistik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Pedagogik jarayonda bunday materiallar yordamida o‘quvchilarga masalalarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish, xulosa chiqarish va muammolarni hal etish ko‘nikmalar shakllanadi.

Xalq pedagogikasi barkamol avlod tarbiyasi uning kamolotiga oid barcha masalalarni o‘zida mujassam etgan. Xalq pedagogikasida tarbiya milliy qadriyatlarimiz tub mohiyatini o‘rganish, o`tmishni unutmaslik bugunning qadriga yetishlik va kelajakka umid ruhida olib beriladi. Xalq pedagogikasi umuman olganda ilmiy pedagogika bilan bog`liqdir. Ma`lum ma`noda o`zbek xalq og`zaki ijodi to`g`ridan-to`g`ri yoshlар tarbiyasiga ta`sir etish vositasi bo`lib xizmat qilgan va xizmat qilib kelmoqda. Xalq og`zaki ijodi namunalari asosida tashkil qilingan o`yin o`quvchillar o`zlashtira oladigan faoliyat hisoblanib, bu faoliyat jarayonida ular o`qishga mehnatga badiiy ijodga qiziqadilar, hayotiy muammolarni tezda ilg`ab oladilar. Shu boisdan o`yinga tayanib ish ko`rish bola xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga uni o`qishga qiziqtirishda ega maqbul yo`l, tarbiyaviy ta`sirga hayajonli javob berishni ta`minlash uslub bo`lib hisoblanadi. O`yinli vaziyatlardan maqsadli foydalanish g`oyasi bir muncha ilg`or va samaradorlidir.

Tarbiya metodlari ichida eng ko`p qo`llaniladigan yana bir turi bu namuna, ibrat ko`rsatish yani o`rnak bo`lishdir. Buni ikki xil yo`nalishda amalga oshirish mumkin. Birinchisi, yaxshi fazilatlarga ega bo`lgan insonlarning ibratli jihatlarini ko`rsatish orqali undan o`rnak olishga undasa, ikkinchisi salbiy axloqli kishilarning nojo`ya ishlarini ko`rsatish bilan undan nafratlanishga o`rgatiladi. Buyuk allomalar va mutafakkirlarning hayot yo`li bizga doim ibrat maktabi bo`lib qoladi.

Xalq og`zaki ijodida ulug`lanadigan fazilatlar: fidoyilik, matonat sabr-qanoat va boshqa axloqiy kategoriylar inson tarbiyasida muhim o`rin egallaydi. Komil inson-qullik, mutelik, boqimondalikdan batamom xalos bo`lgan shaxsdir. Tariximizda komillik timsollari ko`pdir. Algomish-xalqimizning ideal qahramoni, A.Navoiy uchun ideal-Farxon obrazi, Oybekning “Navoiy” romanida esa Navoiy-ideal obraz. Ayni paytda u real tarixiy shaxs, komil insondir. Bu obrazlar barcha yaxshi fazilatlarni o‘zida mujassam etgan.

Xalq og`zaki ijodi milliy madaniyatning asosiy tarkibiy qismi bo`lib, u orqali yosh avlod milliy o‘zligini anglash va qadrlashga o`rganadi. Pedagoglar tomonidan ushbu ijodiy merosni darsliklarga, seminar va madaniy tadbirlarga kiritish, o‘quvchilarda milliy qadriyatlar va tarixiy tajriba asosida sog‘lom dunyoqarash shakllanishiga xizmat qiladi. Shu yo`l bilan, yoshlar o‘zlarining madaniy ildizlariga sodiq qolishlari va global miqyosda o‘z milliy an’alarini ifodalash imkoniga ega bo‘lishadi.

Umuman olganda, xalq og`zaki ijodi namunalari orqali ta’lim-tarbiya masalalari – bu nafaqat tarixiy tajriba va donolik, balki bugungi va kelajak avlodlar uchun yo`l yo`riqdir. Ushbu ijodiy meros orqali yoshlarni yetkazish, ularni ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan boyitish mumkin. Shu yo`l bilan, jamiyatimizda sog‘lom fikrlash, insoniylik va uyg`unlikning mustahkam poydevori yaratiladi.

Date: 7th April-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. M.J. Mutualipova. "Xalq pedagogikasi" Toshkent-2025
2. MAKAPEN'KO A.C Педагогика-М: Владос 2001 г.
3. B. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti – Т. 2017
4. Dildora, A. (2024). O 'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASI VA ISLOM TA'LIMOTIDA TA'LIM VA TARBIYAGA OID QARASHLAR UYG'UNLIGI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 216-218.
5. Durdona, S. (2024). SINF JAMOASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI O 'QUVCHILARDA JAMOAVIYLIK HISSINI KUCHAYTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 238-241.
6. SI, E. (2024). KOMIL INSONNI SHAKLLANTIRISHDA MEHNAT TARBIYASINING O 'RNI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 242-245.
7. Umarqulova, M. A. (2024). ABDULLA AVLONIY ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALASINING YORITILISHI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 231-234.
8. Akromova, F. A. (2024). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TARBIYA JARAYONINING MAZMUN VA MOHIYATI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 1(2), 235-237.